

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>



FORMING A SENSE OF PATRIOTISM FROM THE YOUTH THROUGH TANGIBLE CULTURAL HERITAGE OBJECTS

Rakhbar Ergashevna Khalikova

*doktor of historical sciences, professor
Tashkent State Technical Universitu
Tashkent, Uzbekistan*

E-mail: @tdtu.uzrahbarkholikova@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: independence, objects of material cultural heritage, Constitution of the Republic of Uzbekistan, articles, laws, patriotism, Aksikent, Great Silk Road, city ruins, castle, valley.

Received: 05.02.24

Accepted: 07.02.24

Published: 09.02.24

Abstract: In the article, attention is being paid to the reforms implemented in our republic, to material cultural objects, and it is the duty of adults to form a sense of respect, pride and pride in our country and the heritage of our people, and encourage them to respect the growing young generation., It will have a positive effect if our children visit more museums and monuments and get to know this heritage closely, besides, there is a special place of material cultural objects in the development of tourism, today it is necessary to preserve cultural heritage objects, which is not only considered a legal requirement, but also a human duty. It is also explained that the legal basis for the protection of cultural heritage objects is being regularly improved in accordance with the Constitution of the Republic of Uzbekistan.

MODDIY MADANIY MEROS OB'EKLARI ORQALI YOSHLARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH

Raxbar Ergashevna Xalikova

*Tarix fanlari doktori, professor
Toshkent davlat texnika universiteti
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: @tdtu.uzrahbarkholikova@mail.ru*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: mustaqillik, moddiy madaniy meros ob'ektlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi modda, qonunlar, vatanparvarlik,Axsikent,Buyuk yo'li,shahar xarobalari,qal'a,vodiy.

Annotatsiya: Maqolada respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar, moddiy madaniy ob'ektlarga e'tibor berilayotganligi, o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda ularda Vatanimizga, xalqimizning

merosiga hurmat, faxr va g'urur tuyg'ularini shakllantirish, ularni e'zozlashga chorlash kattalarning vazifasi ekanligi, yoshlarimiz ko'proq muzey va obidalarga borib, ushbu meros bilan yaqindan tanishishlari ijobiy samara berishi, qolaversa turizmni rivojlantirishda moddiy madaniy ob'ektlarning alohida o'rni mavjudligi, bugungi kunda madaniy meros ob'ektlarini asrab-avaylashimiz zarur bo'lib, bu nafaqat qonun talabi, balki insoniy burch ham hisoblanadishi keltirilgan. Shuningdek mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilishning huquqiy asoslari muntazam takomillashtirilayotgani va bu yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasining 49 moddasida ham o'z ifodasini topgani yoritib berilgan.

ФОРМИРОВАНИЕ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА У МОЛОДЕЖИ ЧЕРЕЗ ОБЪЕКТЫ МАТЕРИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ

Рахбар Эргашевна Халикова

доктор исторических наук, профессор

Ташкентский государственный технический университет

Ташкент, Узбекистан

E-mail: @tdtu.uzrahbarkholikova@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: независимость, объекты материального культурного наследия. Конституция Республики Узбекистан, статьи, законы, патриотизм, Ахискент, Великий Шелковый путь, руины города, замок, долина.

Аннотация: В статье уделяется внимание реформам, реализуемым в нашей республике, материальным объектам культуры, обязанность взрослых - формирование чувство уважения, гордости и достоинства, поощрять уважении к наследиям подрастающего поколение своей памяти. Если наши дети чаще посещают на музеев и памятников, тогда ближе становится с нашими наследием и можно ждать положительный эффект, в том числе в развитии туризма важное место играет материальные культурные объекты. Для этого сегодня очень необходимо сохранять объекты культурного наследия, и они является не только требованием закона, но и долгом каждого гражданина страны. А также в статье разъясняется, правовые основы охраны объектов культурного наследия и регулярные усовершенствований в соответствии с Конституцией Республики Узбекистан.

KIRISH

Yangi O‘zbekiston sharoitida ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan madaniy meros obyektlarini himoya qilish, muqaddas qadamjolarni obodonlashtirish va ularning turistik salohiyatidan unumli foydalanishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar o‘tkazilib, mamlakatimizda turizm iqtisodiyotini yanada rivojlantirish yuzasidan anchagina amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, turizm – iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

ASOSIY QISM

Maqola mavzusini yoritishda umume’tirof etilgan tizimlashtirish, xolislik, taqqoslash, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Maqola umume’tirof etilgan tarixiy-taqqoslash, tizimlashtirish, retrospektiv va statistik tahlil kabi usullar asosida bayon etildi. Mustaqillik yillarda O‘zbekiston hududlarida tarixiy-madaniy merosning tiklanishi, уларнинг muhofazasini kuchaytirish, madaniy meros ob’ektlapini asrab-avaylash, kelajak avlodga ularning bemisl go‘zalligini saqlagan holda yetkazish aloҳида аҳамиятга эга.

Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda tarixiy-madaniy merosga yangicha munosabat konsepsiyasining shakllanishi, shuningdek, tarixiy xotira va merosni tiklash borasida muhim qadamla amalga oshirildi. Bu borada yurtimiz tarixchi olimlarining tadqiqotlari muhim o‘rin egallaydi. Jumladan, A.Asqarov [1], E.Rtveladze [2], K.Shoniyozov [3], M.Isxoqov[4] lar tarixiy-madaniy merosning arxeologik va tarixiy ahamiyatini ochib berishga e’tibor qaratishgan. Shuningdek O‘.Mavlonov [5], M.A.Mirzayev [6], X.S.Islamxodjayev [7], A.R.Abriyev [8], F.B.Xayitova [9], S.Jo‘rayeva [10], M.M.Mirsaydullaev [11] larning ilmiy izlanishlarini ҳам misol tariqasida keltirib o‘tish mumkin. Ushbu tadqiqotlarda respublikada tarixiy-madaniy meroslarni ro’yxatga olish, saqlash va ilmiy o‘rganish bilan bog‘liq masalalar tahlil etilgan [12].

Tarixiy madaniy obidalarimiz xalqimizning nafaqat tarixiy merosi sifatida, balki ma’naviy boyligi sifatida ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. O‘zbekiston mustaqillikka erishgan ilk kunlaridan boshlab boshqa sohalarda bo‘lgani singari Respublika hududidagi moddiy va nomoddiy yodgorliklarga munosabat ham tubdan o‘zgardi. Shu asnosida ularni o‘rganish, sovet yillarda xarobaga aylantirilgan yodgorliklarni ta’mirlash va rekонтstruksiya qilish ishlari boshlab yuborildi. Shu nuqtai nazardan ham moddiy madaniy meros ob’ektlari muhofazasini kuchaytirish, madaniy meros ob’ektini asrab-avaylash, kelajak avlodga ularning bemisl go‘zalligini saqlagan holda yetkazish, mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish maqsadida yurtimizda qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Bugungi kunda O‘zbekistonda moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk ob’ektlari soni 8210 ta, ulardan arxitektura yodgorliklari soni 2252 ta, arxeologiya yodgorliklari soni 4748 ta, monumental san’at yodgorliklari 678 ta, diqqatga sazovor joylar 532 tani tashkil etmoqda [13].

O‘zbekiston Respublikasining Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi qonunning 3-moddasida **madaniy meros ob’ektlari** – moddiy va nomoddiy madaniy meros ob’ektlaridan tashkil topgani, **moddiy madaniy meros ob’ektlariga** – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qiymatga ega bo‘lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar kiritiladi. **Nomoddiy madaniy meros ob’ektlari** – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati), shuningdek xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar tilga olinadi[14].

Madaniy meros beباho boylik bo‘lib, unda xalqimizning boy tarixi mujassamlashgandir. Shu bois madaniy meros ob’ektlarini asrab-avaylashimiz zarur bo‘lib, bu nafaqat qonun talabi, balki insoniy burch ham hisoblanadi. Shu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XI bob – Fuqarolarning burchlari qismi 49-moddada “Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir” deya belgilandi. Mazkur modda O‘zbekiston fuqarolarining madaniyat yodgorliklarini asrash nafaqat burchlari balki, xalqning beباho ma’naviy mulkiga hurmat ruhi bardavom bo‘lishini nazarda tutadi.

Ta’kidlash o‘rinligi, keyingi yillarda mazkur sohaga oid 5 ta maxsus qonun [15], chunonchi “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi, “Muzeylar to‘g‘risida”gi, “Arxeologiya merosi ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi.

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilishning huquqiy asoslari muntazam takomillashtirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, tegishli qonunlar va qonunosti hujjatlari bu boradagi ishlarda muhim dasturilamal bo‘layotir. 2023 yil 1 maydan O‘zbekiston Konstitutsiyasing yangi tahriri kuchga kirdi. U 6 bo‘lim, 27 bob va 155 ta moddadan iborat bo‘lib, Konstitutsiyamizning amaldagi **275 ta normasi 434 taga ko‘paydi**, ya’ni amaldagi Konstitutsiyamiz **65 foizga yangilandi**. Ayni yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasida ham madaniy meros ob’ektlariga e’tibor qaratildi.

“Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir” [16] deb, 49-modda kiritilgan. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida 08.05.2023 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni chiqdi. Bu farmonning 10- bo‘limida “Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 78-moddasida belgilangan bolalar va

yoshlarda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishga oid qoidalarni amalga oshirish maqsadida 2023 yil 1 sentyabrdan boshlab respublika fuqarosi hisoblangan va 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarning madaniy meros ob’ektlariga, jumladan ko‘rgazmalar, tarixiy obidalar va ziyoratgohlar, shuningdek, davlat muzeylariga to‘lovsiz kirish tartibi joriy etilsin” [17] deb, yosh avlodga madaniy merosimizga bo‘lgan muhabbatini yanada oshirish uchun,vatanparvarlik tuyg‘usini yanada shakllantirish uchun davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratildi. Shuningdek bu sohada, “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi, “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Arxeologiya merosi ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi, “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonunlarda bu boradagi ishlarni tashkil etishning huquqiy mexanizmlari aniq belgilab berilgan [18].

Har bir davlat rivojida tarixiy,madaniy,ma'naviy merosi negizlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib,bu xalqni ma'naviy yuksalishining yangi bosqichiga olib chiqadi. Xalq ma'naviyati shakllanishida qadimiyligi, ilmiy,diniy va badiiy merosning o‘rni katta ahamiyatga ega.Bizgacha yetib kelgan moddiy va nomoddiy meros ajdodlardan qolgan buyuk xazina bo‘lib,bugungi kunda o‘zbek xalqida uni chuqur o‘rganishga ajdodlar merosi hisoblangan madaniy yodgorliklarga hurmat bilan qarashga alohida e’tibor qaratilayotgani beziz emas.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoev 2017 yil Namangan viloyatiga tashriflari chog‘ida aynan shunday Axsikent nomi bilan ataluvchi ko‘hna shahar xarobalari bugungi jahon tarixida o‘ziga xos shaharlardan biri ekanligi, 3000 ming yillik tarixga ega ekanligi va bu shahar tarixi o‘rganilishi o‘ta dolzarb bo‘lib, bu xududda arxeologik qazilmalarni tiklash, muzey va boshqa madaniy-ma'rifiy markazlarni ochish bilan chet ellik sayyoohlarga ko‘hna Axsikentda turizmni rivojlantirish to‘g‘risidagi takliflarini bergenliklari ushbu hududda yashovchi olimlarni juda ruhlantirdi.

Respublikamizda milliy-madaniy merosimizni tiklash, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish,olimlarimizning xizmatlari ham beqiyos.

Bu borada olimlarimiz ham o‘z harakatlari bilan madaniy merosga bo‘lgan hurmatlarini o‘zlarining ilmiy izlanishlari,ko‘p yillik samarali mehnatlari bilan hissa qo‘shmoqdalar, jumladan **Mirmahmud Mirsaydullaevning” Axsikent tarixi” monografiyasini ham shunday izlanishlardan guvohlik beradi.** Olim o‘z monografiyasida Farg‘ona vodiysidagi Axsikent arxeologik yodgorligiga to‘xtalib, ushbu shahar eramizdan avvalgi III-asrda tashkil topganligi, 1621 yilgi zilzilada vayronaga aylanganligi, Farg‘ona vodiysining eng qadimgi poytaxti, siyosiy, madaniy, iqtisodiy markazi hamda Buyuk ipak yo‘lining asosiy shaharlaridan biri bo‘lganligi haqida to‘xtalib o‘tadi. Saqlanib qolgan maydoni: 90 gektarga yaqin yer osti suv inshootining mavjudligi va shaharning mudofaa uchun qulay geografik o‘rinda joylashganligi Axsikent shaharsozligidagi o‘ziga xos jihatlar hisoblanadi. Bu yerda hunarmandchilik ishlab chiqarishining shishasozlik va keramika, metallurgiya va qurolosovlik kabi

sohalarni rivojlangan. Axsikent miloddan avvalgi asrlarda, hamda VII-X va XV asrning ikkinchi yarmida Farg'ona vodiysining poytaxti vazifasini o'tagan. Arxeologlar tomonidan temirchilar ustaxonasi, X-XIII asrlarga oid hammom qoldiqlari, harbiy kazarma xonalari, jom'e masjidi, mudofaa devorlari, yer osti irrigatsiya tizimi inshootlari, hunarmandlar mahallasi, hukmdor qarorgohi-Ark, ichki shahar (Shahriston) qazib o'rganilgan. Rossiya va yevropalik tarixchi hamda arxeologlaridan SharlEjen de Uyfalvi, N.Veselovskiy, I.Kastane, V.Bartold va boshqalar Axsikentni tadqiq etganlar.

2017 yil 16 oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida "Axsikent" arxeologiya merosi ob'ektini muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorlik majmuasini tashkil etish to'g'risida № 831-Qarori qabul qilindi [19] va shuning asosida "Axsikent" arxeologiya merosi ob'ektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi tashkil etildi. Axsikentning haqqoniy tarixini yaratish Qarorda ko'rsatilgan asosiy vazifalar sirasiga kiradi. "Aksi" toponimining ma'nosini olimlar turlicha talqin qilinadi. Ulardan eng haqiqatga yaqini "Oq suv" so'zi bilan bog'liqligidir. Ya'ni O'rta Osiyoda oq, qora, qizil, sariq ranglar orqali ifodalangan joy va daryo nomlari ko'plab uchraydi. Daryo yoki shaharga nom berishda avvalo so'zning ma'nosini mahalliy aholi tilidan qidirish lozim. Shu bois "Aksi" so'zining sof turkiy tildan olinganligiga shubha yo'q.

Axsikent Norin va Qoradaryoning qo'shilishidan hosil bo'lgan Sirdaryo qirg'og'ida joylashgan bo'lib, Norin daryosining qadimgi nomi "Oqsuv daryo" bo'lgan. O'lkamizda buloqlardan boshlangan daryolar "Qorasuv", tog'lardan boshlanganlari esa "Oqsuv" nomi bilan atalgan. Shu bois shaharni "Oqsuv bo'yidagi shahar-Oqsuvkent", deb atalishi gidronimik jihatdan to'g'ri bo'ladi. Keyinchalik xalq tilida "Oqsuvkat", "Axsikat" bo'lib ketgan bo'lishi mumkin. "Kat" so'zi qadimgi turkiy tilda qal'a, shahar ma'nolarini anglatgan. Shahar dastlab XVI asr o'rtalarigacha Axsikat, Aksi, deb atalgan. XVI asr oxirlari XVII asr boshlaridan boshlab esa Axsikent, deb atala boshlangan. Chunki, yirik shaharlarga "kent" iborasi qo'shib ishlatalgan.

Axsikentda ochiq osmon ostidagi muzey tashkil etilib, arxeologik qazishma ishlari olib borildi va borilmoqda. Shaharning haqqoniy tarixini yaratish, o'nlab axsikatiy olimlar hayoti va ilmiy asarlarini hamda manzilgoh tadqiqtchlari faoliyatini tahlil qilib o'rganish ham Axsikent tarixining ajralmas qismidir.

Farg'ona vodiysining Axsikent va boshqa shaharlaridan yetishib chiqqan allomalar va ularning ilmiy merozi haqidagi ma'lumotlarni turli manbalardan, qo'lyozma asarlardan jamlash hamda tadqiq etish, ko'plab izlanishni taqozo etib, bu mutaxassislar oldidagi burchdir. Farg'ona vodiysidan yetishib chiqqan allomalar nomlari va ular haqidagi dastlabki, qisqacha ma'lumotlarni e'lon qilish bu boradagi izlanishlarga turtki beruvchi qadamlardan biridir [20].

XULOSA

Mustaqillik yillarda moddiy madaniy meros ob'ektlari davlat e'tiborida bo'ldi. Moddiy madaniy meros obyektlarini saqlash va qayta tiklash sohasidagi amalga oshirilayotgan ishlar xalqimiz milliy madaniyatiga tegishli yodgorlik va qadriyatlarni saqlab qolishda muhim hisoblanadi. O'zbekiston hukumatining bu sohadagi faoliyati o'zbek madaniyati va tarixini dunyoga tanitish, madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu aloqalarni yanada kengaytirish va hududimizdan o'r ganilmagan tarixiy-madaniy merosni jahon merosining bir bo'lagiga aylantirish davr talabidir. Shuningdek yoshlarni moddiy madaniy merosimizga, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash va bu merosni bus butun keyingi avlodga yetkazish bugungi kunda ortga qoldirib bo'lmaydigan dolzarb vazifadir. Zero, tarixi, madaniyati, qadriyatlarini bilgan va uni keyingi avlodga yetkazgan xalq buyuk va kelajagi porloqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. –Toshkent: TDPU, 2007.
2. Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь. Энциклопедический справочник. – Ташкент, 1999.
3. Shoniyo佐ov Sh.K. O'zbek xalqining kelib chiqishi. – Toshkent: Sharq, 2001.
4. Исхаков М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры. – Ташкент, 2006.
5. Mavlonov O'., Abduvositova I. Tarixiy madaniy meros – milliy g'oyani anglash omili. – Toshkent: Akademiya, 2014. – B. 176.
6. Mirzayev M.A. O'zbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza etish va o'r ganish ishining tashkil topishi va rivojlanishi (1917-1941-yillar). T.f.n. diss. – Toshkent, 1994.
7. Исламходжаев Х.С. Государственное управление в области охраны и использования памятников истории и культуры Узбекистана. Дисс. к.ю.н. – Ташкент, 1998.
8. Abriyev A.R. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda tarixiy-me'moriy obidalarni ta'mirlash va qayta tiklash tarixi (Zarafshon vohasi misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2018.
9. Xayitova F.B. O'zbek xalqi etnomadaniyatida ziyyarat va ziyyaratgohlar tarixi (Qashqadaryo vohasi misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2021.
10. Халикова, Р. Э. (2023). О 'RTA OSIYO XONLIKALARINING QO 'SHNI XALQLAR (QOZOQLAR) BILAN SAVDO ALOQALARI TARIXIDAN. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 6(4).
11. Khalikova, R. E. (2023). THE BRAVE DEFEND THE MOTHERLAND. Oriental Journal of Social Sciences, 3(01), 18-26.

12. Холикова, Р. Э. (2022). Аёллар тадбиркорлигини ривожлантиришда замонавий ёндашувлар ва хукуматимиз томонидан қўллаб-кувватланиши. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(9), 303-310.
13. Холикова, Р. Э. (2022). БУХОРО АМИРЛИГИДА ҲУНАРМАНДЧИЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-1).
14. Холикова, Р. Э. (2021). XIX АСР ОХИРИ–XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДАГИ КУТУБХОНАЛАР ТАРИХИДАН (Муҳаммаджон Садри Зиё ва Мир Сиддик Ҳашмат кутубхоналари мисолида). *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 4(9).